

## TALABGORG A ESLATMA

1. Test o'tkaziladigan kun talabgor shaxsini tasdiqlovchi hujjatining asli (fuqarolik pasporti) bilan ruxsatnomada ko'rsatilgan vaqtdan kechikmasdan kelishi shart.
2. Shaxsi tasdiqlanmagan va kechikib kelgan talabgor test sinoviga qo'yilmaydi.
3. Test sinovlari bo'lib o'tadigan binoga va auditoriyaga har qanday qo'llanma, adabiyotlar, telekommunikatsiya va texnika vositalarini olib kirish qat'iy man etiladi. Test sinovini o'tkazish jarayoniga turli xatti-harakatlar bilan salbiy ta'sir qilish: boshqa talabgorlar bilan muloqot qilish, savollar kitobi varaqlarini yirtish, savollar kitobini boshqa talabgorlarga berish, test sinoviga ajratilgan vaqt tugagandan so'ng yozishda davom ettirish, boshqa talabgorga birorta buyum uzatish taqiqlanadi. Ushbu talablarga rioya qilmagan talabgor sinovdan dalolatma bilan chetlatiladi.
4. Auditoriyaga ustki kiyimlar, sumka, papka va boshqalarni olib kirish taqiqlanadi.
5. Auditoriya mas'ul kuzatuvchisi test boshlanganini ma'lum qilmasdan oldin savollar kitobini ochish taqiqlanadi.
6. Mas'ul kuzatuvchiga test sinovi paytida savol berish taqiqlanadi (test sinovlari o'tkazilishi bo'yicha barcha savollar mas'ul kuzatuvchiga imtihon boshlanishidan oldin beriladi).
7. Mas'ul kuzatuvchi ruxsatisiz auditoriyani tark etish taqiqlanadi.
8. Test materiallarini auditoriyadan olib chiqish man etiladi.
9. Sizga noto'g'ri, talabga mos bo'lmagan test materiallari berilgan deb hisoblasangiz yoki test topshiriqlari nuqsonli bo'lsa auditoriya mas'ul kuzatuvchisiga test boshlanishidan oldin zudlik bilan xabar bering.
10. Test sinovini topshirish vaqtida guruhdan zarurat bilan chiqqan talabgorga qo'shimcha vaqt belgilanmaydi.
11. Javoblar (test va yozma ish) varaqasi raqamlarini solishtiring, ular bir xil bo'lishi kerak. Raqamlar bir-biridan farq qilsa, auditoriya mas'ul kuzatuvchisiga murojaat qiling.
12. Test sinovlari paytida sog'lingingiz yomonlashsa, zudlik bilan auditoriya mas'ul kuzatuvchisini ogohlantiring.
13. Talabgor test sinoviga kechikkan yoki sababsiz kelmagan hollarda, to'lovning 50 foiz miqdori qaytariladi.
14. Test sinovi o'tkazilishi jarayonida talabgorga bir vaqtda faqat bitta umumta'lim fanidan test topshirishga ruxsat etiladi.

## TEST SINOVLARI NATIJALARI

1. Sertifikat test sinovi natijasi bo'yicha eng yuqori ballning kamida 60 foizini to'plagan shaxslarga 3 yil muddatga beriladi.
2. Test sinovi natijalari ular yakunlangan kundan boshlab yigirma ish kunidan kechikmay Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.
3. Sertifikatga ega bo'lgan abituriyentga sertifikatdagi o'zlashtirish (60 va undan yuqori) foiziga mos ravishda oliy ta'lim muassasasi bakalavriyatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball beriladi.

Ya'ni sertifikat qaysi fandan olingan bo'lsa, shu fanning fanlar majmuasidagi o'rniga qarab mos ravishda maksimal ballning ma'lum foizi beriladi.

Masalan, matematika fanidan sertifikatga ega bo'lgan abituriyentning sertifikatdagi o'zlashtirishi 60 foiz, matematika fanining fanlar majmuasidagi o'rni birinchi (har bir to'g'ri javob uchun 3,2 ball, 30 ta test topshirig'iga maksimal 96 ball) bo'lsa, uning 60 foizi 57,6 ballni tashkil etadi ( $3,2 \cdot 30 = 96$  ball,  $96 \cdot 60 / 100 = 57,6$ ). Agar abituriyentning sertifikatdagi o'zlashtirishi 80 foiz bo'lsa, 76,8 ballni tashkil etadi ( $3,2 \cdot 30 = 96$  ball,  $96 \cdot 80 / 100 = 76,8$ ).

4. Sertifikat test sinovidan ijobiy (60 va undan yuqori foiz) natijaga erishgan talabgorga test sinovi natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir hafta mobaynida elektron shaklda beriladi. Talabgor sertifikatni shaxsiy kabineti orqali yuklab olishi mumkin.